



## FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING QARORI

150600, Yozyovon tumani Mustaqillik ko‘chasi 1-uy, tel: (73) 412-15-15, www.yozyovon.uz

2022 - yil 27 - sentabr

275-11-165-Q/22

Yozyovon tuman hokimligi

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-sentyabrdagi PQ-373-sonli hamda viloyat hokimining 2022-yil 16- sentyabrdagi 373-11-0-Q/22-son qarorlari haqida**

Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini va ichki bozorlarda narxlar barqarorligini ta‘minlash hamda agrar sohada aholining tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning daromadlarini oshirish, shuningdek, “Bir hudud-bir mahsulot” tamoyili asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Dehqon xo‘jaliklari tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 10-sentyabrdagi PQ-373-sonli viloyat hokimining 2022-yil 16-sentyabrdagi 373-11-0-Q/22-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan:

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-sentyabrdagi PQ-373-sonli hamda viloyat hokimining 2022-yil 16-sentyabrdagi 373-11-0-Q/22-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

a) ekin maydonlari fuqarolarga 30 yil muddatga: suv ta‘minoti yaxshi bo‘lgan yerlardan - Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida 0,15 gektardan 1 gektargacha, boshqa viloyatlarda 0,30 gektardan 1 gektargacha hamda

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 0,30 gektardan 2 gektargacha bo‘lgan o‘lchamlarda;

kam suvli yerlardan - viloyatlarda 0,50 gektardan 1 gektargacha hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 0,50 gektardan 2 gektargacha bo‘lgan o‘lchamlarda ijaraga berilishi;

b) 2022-2023-yillarda dehqon xo‘jaligi yuritish maqsadida ekin maydonlarini aholiga berish uchun tashkil etiladigan ochiq elektron tanlovda 1 nafar talabgor ishtirok etgan taqdirda, istisno tariqasida, tanlov o‘tkazilgan hisoblanishi;

v) issiqxona tarmog‘i keng rivojlangan tumanlarda dehqon xo‘jaliklariga ajratib berilgan ekin maydonlarida isitish tizimlarini o‘rnatmagan holda yengil konstruksiyali issiqxonalar qurilishiga ruxsat berilishi belgilanganligi;

**quyidagicha tartib joriy etilganligi, unga muvofiq:**

“Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan aholiga dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkalari ochiq elektron tanlov orqali ijaraga berilganda, mazkur xatboshida nazarda tutilayotgan shaxslar yuqoridagi daftarlardan chiqarilmasligi va ular uchun qonunchilikda belgilangan barcha imtiyoz va preferensiyalar bir yil muddatga saqlab qolinishi;

imtiyoz va preferensiyalarning bir yillik amal qilish muddati dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab hisoblanishi belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining 2022-yil 16-sentabrdagi 373-11-0-Q/22-sonli qarori bilan:

Viloyatda fermer xo‘jaliklari va klasterlar foydalanishidagi g‘alladan qisqartirilgan hamda aholi punktlariga yaqin va suv ta’minoti yaxshi bo‘lgan yerlar hisobidan fuqarolarga ochiq elektron tanlov orqali ijara huquqi asosida beriladigan ekin maydonlarining hajmlari 1-ilovaga muvofiq;

viloyat hokimining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul

qilinsin.

4. Tuman hokimining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi (M.Tojiboyev), Kadastr agentligi tuman bo'limi (N.Imomatov) bilan birgalikda:

a) bir oy muddatda 2022-yilda aholiga qo'shimcha tarzda ochiq elektron tanlov orqali ijaraga beriladigan 120 gektar ekin maydonlarining, 2023-yil

1 yanvarga qadar 2023-yilda aholiga ochiq, elektron tanlov orqali ijaraga beriladigan 753 gektar ekin maydonlarining aholi punktlariga yaqin, suv ta'minoti yaxshi bo'lgan yerlardan tanlanishi va shahar hokimligining zaxirasiga belgilangan tartibda qaytarilishi va davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilishini;

Bunda, yer uchastkalariga egalik qilish huquqi yoxud undan doimiy yoki muddatli foydalanish huquqining bekor qilinishi Yer kodeksining 36-moddasida belgilangan hollarda, jumladan yer uchastkasidan oqilona foydalanilmaganda, ushbu qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun hosildorlik darajasi uch yil mobaynida normativdan (kadastr bahosiga ko'ra) past bo'lishida ifodalanganda, yer uchastkasidan tuproq unumdorligi pasayishiga, uning kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishiga, ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib keladigan usullar bilan foydalanilgan taqdirda amalga oshiriladi;

b) zaxiraga olingan yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlari shahar hokimligi buyurtmasiga asosan amalga oshirilishini, bunda davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlari mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishini;

v) davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan ekin maydonlarining suv ta'minoti yaxshi bo'lgan yerlarda kamida 0,15 gektarga teng bo'lgan hajmlarda lotlarga ajratilib, bir oy ichida ochiq elektron tanlovga qo'yilishini;

g) ekin maydonlarini tanlash va lotlarga ajratish ishlarida mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha shahar hokimlari yordamchilarining ishtirokini hamda ular tomonidan bildirilgan takliflar inobatga olinishini;

d) yer to'g'risidagi qonunchilik va ijara shartnomasi talablari bajarilmaganda, jumladan ijaraga berilgan yer uchastkasidan oqilona foydalanilmaganda, talabgor tomonidan ochiq elektron tanlov orqali yerning ijara

huquqini yutib olish uchun olingan qo‘shimcha majburiyatlar bajarilmaganda, yerga bo‘lgan huquq Yer kodeksi va “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunga asosan bekor qilinishi haqida dehqon xo‘jaliklari a‘zolari orasida tushuntirish ishlari olib borilishini ta‘minlasin.

Mazkur bandeda belgilanayotgan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida ta‘minlamagan bo‘lim va tashkilot rahbarlari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirilsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari A.Saidov, tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (M.Tojiboyev):

2022-yil yakuniga qadar qo‘shimcha 120 gektar, 2023-yilda 753 gektar ekin maydonlarini ochiq va shaffoflikni ta‘minlagan holda dehqonchilik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan, shu jumladan “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan aholiga ajratsin; mazkur maydonlarga Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi tavsiyasiga asosan, hududlar ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan va eksportbop qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilishini ta‘minlasin. Bunda, sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va kartoshka ekinlarini intensiv usulda ekishga alohida e‘tibor qaratilsin;

mahsulot yetishtiruvchilarga qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik resurslar, shu jumladan urug‘lik, ko‘chat, mineral o‘g‘it va kimyoviy vositalar yetkazib berish, shuningdek, zaruriy agrotexnik xizmatlar ko‘rsatish ishlarini tashkil etsin;

agrosanoat klasterlari, tayyorlov, qayta ishlash va eksport qiluvchi korxonalarini jalb qilgan holda yetishtirilgan tayyor mahsulotni xarid qilish, uni qayta ishlash, saqlash, ichki va tashqi bozorlarga yo‘naltirish choralarini ko‘rsin;

O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limidan biriktirilgan vakil (M.Mullajonov) bilan birgalikda ekin maydonlarida zararkunandalar hamda kasalliklar tarqalishining oldini olish maqsadida tizimli kuzatuvlarni tashkil etib, dehqon xo‘jaliklariga ekinlarni himoya qilish xizmatlari o‘z vaqtida ko‘rsatilishini ta‘minlasin;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yig‘ish, tashish, saqlash, qayta ishlash va sotishning barcha bosqichlarini qamrab olgan kichik agrologistika markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rsin.

Tuman hokimining o‘rinbosari A.Saidov, tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi

M.Tojiboyev, Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi tuman bo‘limi S.Sobirov mazkur chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va samarali tashkil etish ustidan doimiy monitoring o‘rnatib, amalga oshirilgan ishlar haqida har oyda viloyat hokimligiga axborot kiritib borsin.

7. Tuman hokimligi Axborot-xizmati (A.Xudoyqulov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (M.Tojiboyev) bilan birgalikda mazkur qarorning mazmun-mohiyati hamda maqsad va vazifalarining ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta‘minlasin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Tuman hokimi**



**D.T.Djalilov**

Yozyovon tuman hokimining  
2022 yil 27 sentabrdagi  
275-11-165-Q/22-son qaroriga  
1-ilova

Tuman hokimining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. Tuman hokimining 2021 - yil 4 - dekabr 143-11-165-Q/21 -sonli qarorida:

a) 5,6 bandlari hamda qarorga 1-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.